

ABDURAHMON JOMIYNING “BAHORISTON” ASARIDA ALISHER NAVOIY OBRAZI

Sunnatova Diyora Furqat qizi Alisher

*Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy obrazi Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asari misolida ko‘rib chiqiladi. “Bahoriston” haqida qisqa ma’lumot va uning tazkira asarlar sirasiga kirishi to‘g‘risida ayrim fikrlar yoritiladi. Bundan tashqari Navoiy obrazi uchragan bir qator asarlardan parchalar berilib, undagi fikrlarga bobomizning o‘z asarlaridan misollar va dalillar keltirilib, tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: tazkira, Bahoriston, zamima tazkira, turkiy va forsiy g‘azallar, ravza, masnaviy, “Makorim ul-axloq”.

Abstract: In this article, the character of Alisher Navoi is considered in the example of the work “Bahoristan” by Abdurrahman Jami. Brief information about “Bahoristan” and some thoughts about its entry into the series of works of art will be covered. In addition, excerpts from a number of works in which the image of Navoi is found are given, and examples and arguments from our grandfather’s own works are given and analyzed.

Key words: tazkira, Baharistan, zamima tazkira, Turkish and Persian ghazals, ravza, masnavi, “Makorim ul-akhlaq”.

KIRISH

Turkiy adabiyotning zabardast vakili, yo‘lboshchisi bo‘lmish Mir Alisher Navoiyning asarlari necha asrlar o‘tsa hamki, adabiyot va so‘z ixlosmandlariga bezavol yetib kelmoqda. Navoiy asarlarini o‘rganganimiz sari undagi so‘z qudratiga takror amin bo‘lamiz va yangidan yangi qirralarni kashf eta boramiz. Mutaakkirning asarlari zamon yoki makon tanlamaydi. Va aynan shuning uchun ham shoirning ijodiyotiga bo‘lgan ehtiyojimiz vaqt o‘tgan sari ortsa ortadiki, hech kamaymaydi. O‘rganilish jarayonida yangi anglamlarni hosil qilamiz. Alisher Navoiy ijodining nafaqat hozirgi davr adabiyot namoyandalari tomonidan balki bobomiz bilan zamondosh bo‘lgan shoir-yozuvchilar tomonidan tadqiq qilinishi yoki e’tirof etilishi Navoiy asarlariga bo‘lgan talabning yuqoriligi va keng ahamiyat kasb etganligidan dalolat. Shoirning asarlari o‘sha davr ijodkorlari uchun ham kattagina bir mavzuga asos bo‘la olgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Biz murojaat etmoqchi bo'lgan asar esa adabiyot olamining yirik vakillaridan biri bo'lmish shoir Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston"idir. Sa'diy Sheroziyning "Guliston"i ta'sirida yaratilgan "Bahoriston" asari 8 ravza (bob) dan iborat bo'lib, zamonlar osha yashab kelayotgan abadiy ibratlar, hikmatlarni o'z ichiga jamlab, iymonga, e'tiqodga, poklikka, adolatga, muhabbatga chorlayotgani, hikoyatlari hanuz mutolaa qiluvchiga ulkan saodatli ruhiyat bag'ishlayotgani bilan bebahodir. Asarda ko'plab tasavvuf donishmandlari va mutafakkirlari haqida ma'lumotlar keltiriladi, xususan, yettinchi ravzada buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyga to'xtalib o'tiladi va uning komil axloqi ijodidan ham yuksakroq ekanligi ta'kidlanadi. [<https://en.oxforddictionaries.com/word-of-the-year/word-of-the-year-2016>].

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Dastlabki olti ravzasi hikoyat va hikmatlar asosida bayon qilingan bo'lsa, yuqorida qayd etilganidek, asarning yettinchi ravzasi she'r va shoirlik xususida bo'lib, unda bir necha olim, adib va ulamolar nomi zikr etilgan. Shu boisdan ham biz "Bahoriston"ni zamima tazkira deya olishimiz mumkin. Zamima tazkira nomiga to'xtaladigan bo'lsak, ayni jumla Suyima G'aniyeva tomonidan birinchi marta qo'llanadi. "Farxangi forsiy mu'iyin" lug'atida "zamima" – arabcha so'z bo'lib, biror narsaga ilova qilingan qo'shimcha ma'nosini bildirishi keltirilgan. Birinchi zamima tazkira Nizomiy Aruziy Samarqandiy tomonidan "Chahor maqola" nomi bilan mashhur "Majma' un-navodir" asari 1156-1157-yili yozilgan. Jumladan, Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asari shunday zamima tazkiralardan hisoblanadi. [Umarova, 2022, 68-69-betlar]. Adibning maqsadi "Bahoriston"ni tazkira asar sifatida yaratish emas edi, ammo yettinchi ravza, ya'ni she'r va shoirlik bobi tazkira talabini bajara olgan.

Abdurahmon Jomiy Navoiy xususida so'z yuritar ekan, uning nafaqat adabiy ijodi, shoirlik mahorati va qobiliyati, balki ijtimoiy darajasi va yuksak insoniyligi borasida ham iliq va samimiy fikrlarni tarannum etgan. Xususan, bob quyidagi fikr bilan boshlanadi: "Bizning zamonamiz bu sohibdavlatvujudi ila musharrafdir. U o'z martabasi, ulug'ligi va shohga yaqinligi va shuningdek Olloh ato etgan o'qish o'rganish bilan orttirilgan ilmu donishi va aqlu zakovati bilan she'rlari husni kamoli uchun har qanday maqtovdan yuqori tursa-da, u o'zini past tutib, she'r ahli jamoasiga qo'shildi va boshqalarga ham pardani oradan ko'tarib, she'riyat yo'lini ochib berdi. Ammo haqqoniyatini aytganda, u mana shu anjumanlarning barchasiga boshliq va she'r ahli sardaftarida nomi bitik"[Jomiy, 2007, 88-bet] Jomiyning ushbu fikrini har

qanaqasiga dalillay olamiz. Alisher Navoiy adabiy faoliyati bilan bir qatorda davlat arbobi maqomida ham tura olgan buyuk siymo edi. Hukumat siyosiy ishlarida uning hissasi ulkan edi. Bolalikdan birga o'sgan maktabdosh do'sti sulton Husayn Boyqaro bilan yelkama yelka davlat boshqaruvida bo'lgan. Keng miqyosda bunyodkorlik harakatlarida bosh bo'lgan. Maktab, madrasa, masjidlar, qolaversa, ko'prik va inshootlar qurilishida bevosita o'zining beminnat ulushini qo'sha olgan, bir so'z bilan aytganda, zamonning noyob jonkuyar yetakchi insoni bo'lib xizmat qilgan. Davlatlararo siyosiy vaziyatlarni to'g'ri baholay olgan kuchli siyosatchi bo'lgani ham bizgacha yetib kelgan tarixiy voqealarda o'z isbotini topadi. Jumladan, Hirotda yuz bergan o'g'ir ahvol...Bir tomondan ichki tushkun vaziyat, ikkinchi tomondan, tashqi dushman (Astrobodda Yodgor Muhammad qo'zg'oloni) endigina taxtga chiqqan Sulton Husayn uchun katta xavf tug'dirgan edi. Lekin Husayn Boyqaro bu yovlarni Alisher Navoiyning bevosita aralashuvi yordamida bartaraf qiladi. Shu asnoda Hirotda g'alayon ko'tariladi. Bunga Hirot amaldorlarining aholiga juda katta soliq solganliklari sabab bo'ldi. Sulton Husayn nihoyatda darg'azab bo'lib, isyonni kuch bilan bostirmoqchi bo'ladi. Navoiy vazminlik bilan unga bunday qilingan taqdirda, birinchidan, xalqning noroziligi yanada oshib, g'azabi ham kuchayishi mumkinligini, ikkinchidan, chetdan qulay payt poylab yurgan dushmanlarga taxt tomon yo'l ochib berilajagini tushuntiradi. Sultondan bevosita o'zi borib vaziyatni tekshirish va lozim choralar ko'rishga ijozat oladi. Vaziyat so'nggida oyoq-qo'llari bog'langan Yodgorni Husayn Boyqaro oyog'i ostiga keltirib tashlaydilar. Keyinchalik esa u qatl qilinadi. Toju taxt uchun uzluksiz qonli to'qnashuvlar ro'y berib turgani sababli tinchligini yo'qotgan, harbiy yurishlar harajatini qoplash yuzasidan solingan soliqlar tufayli qashshoqlashgan, jonidan bezgan bechora xalq Yodgor Muhammadning mag'lubiyatga uchratilishida, shundan keyin mamlakatda tinchlik o'rnatilishiga o'zining sevimli shoiri jonbozligi va tashabbusini qadrlamasligi mumkin emas edi. Xuddi shunday bo'ldi. Navoiy xalq nazarida adolat va insoniylikning, soflik va yaxshilikning timsoliga aylandi[G'aniyeva, 2015, 10-bet].

Yuqoridagi holat davrning ijtimoiy-siyosiy vaziyatlaridan biri sanaladi. Ammo Navoiyning madaniy muhitdagi roli har qaysi jarayondan-da muhim va ahamiyatlidir. U adabiy kechalarda zamonning ko'zga ko'ringan ijodkorlariga ustozlik qilar edi. Samarali ijod bilan mashg'ul bo'lar edi. Mirxond, Xondamir, Sultonali Mashhadiy, Husayn Udiy, Davlatshoh Samarqandiy va boshqa ko'plab adabiyot va san'at ishtiyoqmandlarga boshchilik qilib, sermahsul ijodiy davralarning tashkil etilishiga ulkan hissa qo'shgan. Bir kuni shunday majlislarning birida Navoiy shoirlarga ustoz Jomiyning bir mashhur g'azaliga nazira bog'lashni – o'xshatma yozishni havola qiladi.

Katta-kichik hamma shoirlar nazira yozib, Navoiyga topshiradilar. Muhokama vaqtida Navoiy naziralarni o'qib, ilarini pishiq va yaxshi chiqmaganini ko'rsatib o'tadi. Faqat ikkigina shoir nazira yozib topshirmay qolgan edi: biri – Osafiy, ikkinchisi – Hiloliy. Navoiy ulardan nima sababdan yozishmaganini so'raydi. Ular nazira bog'lashda nazira bog'lanayotgan g'azaldan yo orttirib, yoxud o'sha aslining saviyasida asar yaratish lozim. Biz Jomiydek so'z ustasining shunday yuksak mahorat bilan yozilgan g'azaliga nazira bog'lashga o'zimizda yetarli iqtidor sezmadik, deb kamtarona, lekin haqiqatga muvofiq keladigan javob berdilar. Navoiy bu javobdan g'oyat quvonadi. Ularning she'rshunoslikda juda quvvatli ekanligini ta'kidlab, eng yaxshi she'r uchun belgilangan mukofotni Osafiy va Hiloliyga bergan edi [G'aniyeva, 2015, 13-bet].

“Bahoriston“ asarida shunday bayt keltirilgan:

Asl nomiga kishi topmas taxallusdin imo,

Kim topolsa lablari uzra inar jonbaxsh navo.

Abdurahmon Jomiy Navoiyning pokiza nomini aynan shu baytdan chiqarish mumkin deya ta'kidlaydi. Ya'ni baytdan kishining asl nomi uning taxallusidan topilmaydi, balki tilidan paydo bo'layotgan hayot bag'ishlovchi so'zidan topiladi, degan mazmunni uqishimiz mumkin.

Hazrat Navoiy xususida so'z ketsa, uning turkiyda ham, forsiyda ham umrboqiy asarlar yaratgani qayd etiladi. Uning forsiydan ko'ra turkiyda ko'proq ijod qilgani ma'lum. Ammo forsiy va turkiy she'rlarining mazmundorlik va ta'sir darajasi bir-biridan o'zadi. Turkiy ijodining adadi forsiydan ko'ra ancha ko'pligi Navoiyning o'z tiliga bo'lgan muhabbatning kuchliligidan deb baholasak, mubolag'a bo'lmaydi.

Xususan, Jomiyning “Bahoriston”ida shunday jumlar keltirilgan: “Tabiati taqozosi va qobiliyatiga ko'ra u turkiy va forsiy she'rlarida yuksalishga muyassar bo'lgan bo'lsa-da, turkiyga ko'proq mayllik ko'rsatti va bu tildagi g'azaliyoti o'n ming baytdan ziyodroq bo'ldi” [Jomiy, 2007, 89-bet].

Hazratning turkiyda ko'p va xo'p ijod qilganini, turkona mahoratiga tan berish va shoirlik maqomining eng ulug' darajasiga qo'yish holatlarini yuqoridagi kabi asarlar bilan birga yana bir qator ilm ahllarining yoziqlarida uchratishimiz va ularni qiyosiy tarzda o'rganishimiz mumkin. Jumladan, yoshlik chog'idan Navoiyning tarbiyasi va mehridan bahramand bo'lgan, uning soyasida o'sgan G'iyosiddin Xondamirning “Makorim ul-axloq” nomi ostidagi tarixiy asarida Hazratga nisbatan yuksak darajada ta'rif-u tavsif berilgan. Ya'ni, quyidagicha: she'rning o'zi qasida, g'azal, qit'a, ruboiy va masnaviy singari bir necha turga bo'linadi. Shoirlardan bir guruhi kuchli qobiliyatga

ega bo'lganliklari sababidan ushbu she'r turlarining barchasida she'r yozishgan, ulardan boshqa bir guruhi esa ta'blarining o'tmasligi sababli bu turlarning ayrimlaridagina she'r aytishga harakat qilish bilan cheklanganlar. Allohga hamd va shukrlar bo'lsinki, "Hazrati Sultonning yaqin kishisi" degan daraja va martabaga ega bo'lgan ul oliy Hazratning ushbu she'r turlarining barchasidagi mahorati shu darajaga yetgandiki, agar ilgari davrlarda yashab o'tgan shoirlar ul Hazratning muborak zamonlarigacha yetib kelishganida edi, she'r yozadigan daftarlarini yopib (ya'ni she'r yozishni yig'ishtirib), dunyoning turli tomonlaridan uning fazilat makoni bo'lgan ostonasi tomon shoshilgan bo'lardilar.

Masnaviy:

Tasannoki, tab'ing so'z ustasidir,

Qalamimg kaliti so'zning muammolarini yechguvchidir.

Bu so'zning bozori kasod bo'lgandi,

Xorlik burchagini makon qilgandi.

Bu obro'ni berding sen yana unga,

Uni tortding she'r maydoniga.

Fikringdan quvonchu lazzatga to'ldi,

Navoiyning lutfidan bo'ldi navoiy.

Ul Hazrat iste'dodining kuchliligi va qobiliyatining yuksakligi tufayli har ikkala tilda – turkiy va forsiy tillarda she'r yozish sharafiga muyassar bo'lgan bo'lsa-da, biroq uning o'tkir ta'bi forsiydan ko'ra turkiyga ko'proq mayl ko'rsatgan edi. [Xondamir, 2015, 39-40-betlar].

Ayni asarda turkiy tilda "Xamsa" asari yaratilishi bilan bog'liq bo'lgan ba'zi ahamiyatli fikrlar ham keltirilgan. Navoiy Shayx Nizomiyning "Panj ganj" ("Besh xazina") dostoniga muqobil tarzda turkiy "Xamsa"ni yozishga muyassar bo'lgan va u yigirma yetti ming baytdan tashkil topganligi haqida ma'lumotlar mavjud. "Hazrati Mahdumiy ushbu asar ta'rifida shunday deganlar:

Masnaviy:

Turkiy tilning qo'liga ajib bir yutuq qog'ozi tushdi,

Bu narsa sehrli nafasga egalarning og'zini yopib qo'yadi.

Osmonni yaratuvchilardan unga qalam keldi.

Ushbu yoqimli asar o'sha qalamdan tug'ildi.

Sovg'a etdi forsiyga gavharlarni,

Dariy nazmida go'zal nazm durini.

Agar u ham dariy tilda bo'lganida edi.

So'z aytishga imkon qolmagan bo'lardi.

Mo'jizali tarzda tuzilgan nazm o'lchovida

Nizomiy kim ediyu Husrav kim edi.

U boshqa tilda so'z aytgani sababli

Aql ularni bir-biridan farqlashga ojiz qoldi.

[Xondamir, 2015, 43-bet]

Haqiqatan, o'zbek mumtoz adabiyotini Navoiyning "Xamsa"sisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, uning turkiyda yaratilishi buyuk kashfiyotdir. Xamsani yaratish mas'uliyati, so'zni go'zal va o'rinli qo'llash, uning so'zlik qadri va maqomini ushlab turish har kimga ham berilavermaydi. Bu ilohiy nazar. Uning aksi esa Hazratning bitgan har misrasida namoyon bo'laveradi. "Xamsa" tarkibiga kiruvchi "Layli va Majnun" dostonining ikkinchi bobi, ya'ni Munojot qismida quyidagi baytlar keltirilgan:

Yorab, eshigingda ul gadomen,

Kim, boshtin-ayoqqacha xatomen.

Boq dardu malolatim-ga, yorab,

Rahm ayla bu holating'a, yorab...

Shukringg'a tilimni qoyil ayla,

Sajdangga boshimni moyil ayla...

Bo'l rohnemun mango ul ishga,

Kim bo'lsa sanga rizo ul ishga...

[“Layli va Majnun”, 1992, 10-12-betlar]

Baytlardan ma'lum bo'lishicha, u Allohga qarata iltijo qilyapti. Eshigingda shunday gadomanki, boshimdan oyoqqacha xatodir. O'zining dardi va hijolatchiligiga boqishini, holatiga rahm qilishini iltijo qiladi. Tilimni shukringga o'rgat va sajdangga boshimni yaqinlatgin, qay ish Sening roziligingga sabab bo'lsa, o'sha ishni qilishimga rahnamo bo'lgin, deya Undan panoh tilab, yolvoradi.

Hazrat Alisher Navoiyning forsiyda ham sermahsul ijod qilgani yuqorida ta'kidlandi. Uning forsiy asarlari turkiydan oz bo'lmagan holda mazmun, yuksak darajadagi ifoda va yuqori ma'no bilan to'yingan. Navoiyning forsiy devoni bo'lmish "Devoni Foni"da go'zal debocha, 7 qasida, 554 g'azal, 1 musaddas, 1 marsiya, 72 qit'a, 73 ruboiy, 16 ta'rix, 373 muammo va 9 lug'z (chiston) mavjud. Navoiy Hofiz Sheroziyga 237, Jomiyga 52, Xusrav Dehlaviyga 41, Sa'diyga 25, Kotibiyga 5, Shohiyga 5, Kamol Xo'jandiyga 4 va boshqa shoirlarga ham tatabbu' va tavlrlar yozgan. Shoirning forsiydagi she'rlari inson, uning kechinmalari, intilishlari, e'tiqodi, yorqin va ta'sirli timsollar noyob badiiy vositalar asosida ta'rif qilindi. (G'aniyeva, 2015, 33-bet) Quyida "Devoni Foni"dagi bir g'azal bilan tanishsak,

*Sen barcha podshohlarning kajkulohisan,
yo'q, yanglishdim, kajkulohlar podshohisan.
Bu qanday husnki, kimning qonini to'ksang,
uzr aytib, yuzing oldida bosh qo'yadi.
Ishqing qonimni da'vo qilsa,
qon sochuvchi ikki ko'zim ikki guvohdir.
Sening bag'baqangni topganimda Isfahon olmasidan
emas jannat olmasidan ham ko'nolimni uzaman.
Hajringda ko'z mardumidan qon oqadi,
bu yuzi qoralar (ko'zlarim) ishqing bilan qizildir.
Gunohsizlar qonini to'kding, mening qonimni
to'kmading, gunohim nima edi, bilmayman.
Foniyga bir qara! Chunki ba'zida podshohlar
gadolar tomonga ham nazar tashlaydilar.*

[Devoni Foni, 2002, 204-bet]

Nasriy bayonini quyidagicha keltirsak bo'ladi: Dastlabki baytda yorga qarata, sen podshohlarning kajkulohi, ya'ni oliftasisan, so'ngra yanglishdim, sen oliftalarning podshohisan deydi. Sen kimning qonini to'ksang, u sendan uzr so'rab, yuzing oldiga bosh qo'yadi deya, husnining oldida lol qoladi. Gar ishqing qonimni da'vo qilsa, mening qon sochuvchi bu ikki ko'zim guvohlik beradi. Qachonki sening baqbaqangni topsam, Isfahon olmasi tugul jannat olmasidan ham ko'nglimni uzaman, deydi. Hajringda ko'z qorachig'imdan qon oqadi, chunki bu yuzi qora ko'zlarim sening ishqing bilan qizildir, Foniya ham bir qara, ba'zan podshohlar gadolarga ham nazar tashlab turadi deya, yorga uning ishq oldidagi chekkan azoblarini bildirib murojaat qilmoqda.

Forsiy she'rlari orasida Amir Xusrav Dehlaviyning "Yaxshilar daryosi" qasidasiga javob tariqasida bitilgan qasidasi bor. Unda ajib mazmun va nozik xayolotga ega baytlar juda ko'p. uning boshlanmasi bunday:

Podshohlar tojida yolqinli la'l bo'lsa bezak,

Boshdagi har xom xayolga tob beruvchi cho'g' demak.

[Jomiy, 2007, 89-bet]

Ushbu baytni tahlil qiladigan bo'lsak, yorqin qizil qimmatbaho tosh podshohlarning tojiga zeb beruvchi bo'lsa, boshga kelgan har bir xom xayolni me'yoriga yetkazuvchi, tob beruvchi cho'g'dir deyilgan. Bu kabi baytlarning tahlilini ko'rib Navoiyning o'xshatish va bu orqali tinglovchini hayratda qoldirish qobiliyatiga takror amin bo'lamiz.

XULOSA

Navoiyning ilhomi Yaratganning in'omidir. Fikrimizcha, bu in'om faqat ul Hazratgagina emas, balki uning ijodini o'quvchi va o'rganuvchi barcha ixlosmadnlr uchun berilgandir. Navoiy nomi Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarida zikr etilishi juda o'rinli va Jomiyning bu bobdagi fikrlarining isboti ushbu buyuk qalam sohibining har bir asarida o'z aksini topib turibdi. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida tazkiralr ko'p uchraydi. Bu kabi tazkiralarda bobomizning nomi ham talaygina yod etilgan. Endilikda aynan Navoiy to'g'risidagi tazkiralarni birma-bir o'rganish, boshqa yodnomalar bilan solishtirish va ulardagi jumla va ma'lumotlarni Navoiyning o'z asaridan misol va dalillar keltirish orqali tahlilga tortish kabi masalalarni ko'paytirish muhim sanaladi. Bu kabi tadqiqotlar Navoiyning ijodi va faoliyatiga doir ba'zi qarashlarga aniqlik kiritishga va uning yodini yanada mustahkamlanishiga ko'mak beruvchi omillardan biri sanaladi. Navoiy borasida bajariladigan har qanday izlanishlar

kelgusida kelajak avlodning komil shaxs darajasiga yetishishiga kattagina hissa qo'sha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдурахмон Жомий. (2007) Бахористон. Янги аср авлоди.
2. Alisher Navoiy. (2002) Mukammal asarlar to'plami. To'qqizinchi tom. Toshkent. O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti
3. Alisher Navoiy. (2002) Mukammal asarlar to'plami. O'n to'qqizinchi tom. Toshkent. O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti
4. Умарова, С. (2022) Суйима Ғаниева илмий-адабий мероси Таджикот усуллари ва мезонлари. Тошкент: Bookmany print
5. Хондамир, Гиесиддин. (2015) Макорим ул-ахлоқ: тарихий асар. Тошкент: Гофур Гулом номидаги нашриёт-матбаа уйи.
6. Ғаниева С. (2015) Алишер Навоий (ҳаёти ва ижоди). – Т.: "O'zbekiston".
7. Word of the Year 2016 is... [Electronic resource]. URL: <https://en.oxforddictionaries.com/word-of-the-year/word-of-the-year-2016>